



YOSH ILMIY TADQIQOTCHI

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA
ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

MAQOLALAR TO'PLAMI

2025-yil 12-13-mart

BUXORO DAVLAT UNIVER



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

IQTIDORLI TALABALAR, MAGISTRANTLAR, TAYANCH
DOKTORANTLAR VA DOKTORANTLARNING

“YOSH ILMIY TADQIQOTCHI”

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI

Buxoro shahri, 2025-yil 12-13-mart

BUXARA -2025
“BUKHARA HAMD PRINT” nashriyoti

Tahrir hay’ati:

O.X. Xamidov	– Buxoro davlat universiteti rektori
K.A.Samiyev	– Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo’yicha prorektor
R.G’.Jumayev	– O’quv ishlari bo’yicha prorektor
D.Sh.Yavmutov	– Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo’yicha Birinchi prorektor
A.T.Jurayev	– Xalqaro hamkorlik bo’yicha prorektor
S.S.Davlatov	– O’quv uslubiy department boshlig’i
G.T.Zaripov	– Ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti bosh mutaxassisi
T.H.Rasulov	– Fan va ta’lim mukammallik markazi boshlig’i
O.I.Jalolov	– Amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari kafedrası mudiri
Sh.Sh.Olimov	– Pedagogika kafedrası mudiri
H.I.Eshonqulov	– Amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari kafedrası professori
Z.I.Rasulov	– Ingliz tilshunosligi kafedrası mudiri
A.A.Turayev	– Magistratura bo’limi boshlig’i
O.O.Sayfullayev	– Ilmiy innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirish bo’limi bosh mutaxassisi
N.Sayfullayeva	– Tahririy nashriyot bo’limi boshlig’i

Mas’ul muharir:

U.M.Xalikova – *pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent*

Taqrizchilar:

S.Q.Qahhorov – *pedagogika fanlari doktori, professor*

B.R. Adizov – *pedagogika fanlari doktori, professor*

To’plamda iqtidorli talabalar, magistrantlar, tayanch doktorantlar va doktorantlar, mustaqil izlanuvchilarning ilmiy izlanishlari natijalari, sohalarda amalga oshirilayotgan ishlarning tahlili va bu boradagi takliflari asosida ilmiy-amaliy va uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Mazkur to’plamga kiritilgan maqolalar va tezislarning mazmuni, statistik ma’lumotlar hamda bildirilgan fikr va mulohazalarga mualliflarning o’zlari mas’uldirlar.

the field of teaching human thinking to machines is a clear proof of this. Therefore, we should never trust our thinking ability to one technique and use it correctly.

References:

1. <https://www.weforum.org/stories/2024/04/prepare-future-policy-ideas-ai-in-education/#:~:text=Promote%20AI%20literacy:%20Integrate%20AI%20concepts%20into,Establish%20clear%20guidelines%20for%20the%20safe%20an2.https://keymakr.com/blog/how-ai-is-impacting-on-the-education-system/amp/>
3. <https://jurnal.tamaddunnuri.uz/index.php/tmj/article/view/1221?>
4. https://ijournal.uz/index.php/jartes/issue/view/conference_tdp
5. <https://elgar.blog/category/academic-publishing/>
6. Burgess, M. (2021). Artificial Intelligence: How Machine Learning Will Shape the Next Decade (WIRED Guides). Random House.
7. Arora, V. (2022). Artificial Intelligence in Schools: A Guide for Teachers, Administrators, and Technology Leaders (1st ed.). Routledge. DOI: <https://doi.org/10.4324/9781003183235-1>
8. Luckin, R. (2018). Machine Learning and Human Intelligence: The Future of Education for the 21st Century. UCL Institute of Education Press.
9. Selwyn, N. (2019). Should Robots Replace Teachers? AI and the Future of Education. Polity Press.
10. Nguyen, A., et al. (2021). "Artificial Intelligence in Education: Opportunities and Challenges." Computers & Education: Artificial Intelligence, Elsevier.
11. UNESCO (2022). AI and Education: Guidance for Policy Makers. Available at <https://en.unesco.org/>.
12. Stuart Russell and Peter Norvig "Artificial Intelligence: A Modern Approach" in 2020
13. Pedro Domingos "The Master Algorithm: How the Quest for the Ultimate Learning Machine Will Remake Our World" in 2020.

ISAJON SULTON HIKOYALARIDA OBRAZLAR RUHIYATI TALQINI

Shodiyeva Nigina Ulug‘bek qizi
BuxDU adabiyotshunoslik: o‘zbek adabiyoti
mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Isajon Sulton hikoyalarida qahramonlar ruhiyati tahlili o‘rganiladi. Adib asarlarida inson ichki kechinmalari, ruhiy holati chuqur yoritiladi. Hikoyalar psixologik tahlil va badiiy tasvir vositalari orqali qahramonlar ruhiy olamini ochib berishga xizmat qiladi. Muallif ijodida ruhiy kechinmalar real voqealar bilan bog‘langan holda tasvirlanadi. Shu jihatdan

maqola yozuvchining badiiy mahorati va psixologik tasvir uslubini ochib berishga qaratilgan.

Kalit soʻzlar: Qahramon ruhiyati, ichki kechinma, monolog, tabiat, shamol obrazi, ramz

Oʻzbek nasrining kenja avlod vakillaridan biri, qisqa fursatda hech kimnikiga oʻxshamagan ijod namunalarini yaratib, nafaqat yurtimizda, balki dunyo adabiyotida ham oʻz oʻrniga ega ijodkor Isajon Sulton asarlarida ham ruhiyat tasviri yorqin boʻyoqlarda tasvirlangan. Zero, adibning oʻzi taʼkidlaganidek, “Usullar, shakllar oʻzgarsa-da, adabiyot oʻz ishida davom etaveradi- u solnomachidir. Tarix kitoblari maʼlum davrda roʻy bergan voqealardan darak bersa, adabiyot oʻsha davr kishilarining kechinmalaridan soʻz yuritadi, ruhiyatiga nazar soladi...”^[65]. Darhaqiqat, Adibning "Boqiy darbadar", "Genetik", "Ozod" kabi romanlari, "Munojot", "Onaizorim", "Hazrati Xizr izidan" qissalari, "Ogʻriq togʻi", "Shamolli kecha", "Men, onam va Oʻrta Yer dengizi", "Avliyo", "Qismat daraxti", "Farishta" va boshqa hikoyalarida ruhiyatning yangicha badiiy tasvirlari keltirilgan. Isajon Sultonning mazkur asarlarida oʻziga xoslik shundan iboratki, ularda oʻzbek xalqining dardi, oʻzbekona xarakter, bir soʻz bilan aytganda, milliy ruh ufurib turadi. Shuningdek, qahramonlarning sirli ichki olami darajama-daraja ochib beriladi. Ayni paytda uning qahramonlaridagi oʻylar butun insoniyatga daxldordir. Negaki, har bir inson ichida oʻz ichki "men" i boʻladi, ammo hamma ham bu olam ichiga kirib, oʻz "men"ini tinglay olmaydi. Isajon Sulton yaratgan obrazlar esa oʻz-oʻzini taftish qiladi, ruhiy iztiroblar girdobida azoblanadi. Muallif qahramonlar ruhiyatini tahlil qilishda psixologik tasvirning ichki monologning monolog-xayoliy suhbat, monolog-mulohaza, monolog-iqror, monolog-taftish, peyzaj, psixologik ramzlar, gallyutsinatsiya kabi vositalaridan foydalangan. "Shu mahalgacha onam hali tetik, oʻzini oldirmagan seb oʻylar ekanman. Bir oz yursa tinkasi quriyotgani, ogʻzi quruqshab "Suv yoʻqmikin" deyishlari, saldan keyin oʻtirgani joy izlab alanglashlari... Qoʻlini

⁶⁵ Исажон Султон насри бадиияти: илмий мақолалар, тақриз, адабий суҳбатлар, мактублар. / Тўплаб нашрга тайёрловчилар: Г.Сатторова, М.Қўчқорова. – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2017. – Б. 3.

ko‘zlariga soyabon qilib uzoq-uzoqlarga qiynalib termilishlari ... keksalik degan bir kuz fasli yetib kelganini ko‘rsata boshlabdi. Ha, onam o‘zgaribdi. Menga bosaday itoat qilishi-chi? Boshqa yo‘lakka qarab ketaversa "U yoqqa bormang" desam, "Xo‘p" deb ortiga qaytishlari, qayga borsam ergashishlari, xuddi bolamday itoatkor bo‘lsa-da, bu ham yetmaganday, chiroyli manzaralar-u xushta'm yeguliklarni intilishlari... bir zavqimni keltirsa, bir xavotirimni oshiradi. Har diydor onida yonida bo‘lib, shularni sezmaganimni qarang"^[66]. “Men, onam va O‘rta Yer dengizi” hikoyasi qahramonning ruhiy iztiroblarini tasvirlash uchun muallif monolog-mulohaza tasvir vositasidan foydalangan.

Shuningdek, Isajon Sulton ko‘p asarlaridagi qahramonlarning yashash makoni sifatida o‘zi tug‘ilib o‘sgan joylar bilan aloqadorlikda tasvirlaydi. Ular qishloqning keng dalalarida, ochiq osmon ostida, tabiatning so‘lim bog‘larida, ulkan adirlarida, yam-yashil o‘tloqlar bag‘rida kezib yurgan oddiy, samimiy insonlar. Jumladan, uning "Bibi Salima" hikoyasini o‘qir ekanmiz, bevosita ko‘z o‘ngimizda o‘zbekning mushtipar onasi, kuyunchak ayoli gavdalanadi. Haqiqatan, Bibi Salima oilasi, bola-chaqasi tashvishida yelib-yuguradi, mehnat qiladi: "Yerini yaxshi ko‘radi Bibi Salima. Bir qarichiniyam bo‘sh qoldirgisi kelmaydi. Tez o‘sovchi qovoq va jo‘xori, sekin o‘sovchi mosh-loviya poyalarini qo‘llari bilan tiklaydi, gohida yerga cho‘p suqib, pilta bilan boylab ham qo‘yadi. Yerdan rizq chiqarish oson bo‘ptimi, eh-he, qancha mehnati bor? Peshona tering chak-chak tommasa, hosil berarmidi? Qo‘ling qavarib-qavarib, beling og‘rib-og‘rib mehnat qilmasang, rizq chiqarmidi?"^[67]

Bir vaqtning o‘zida u sadoqat timsoli, hayo libosini kiygan iffatli ayol. "Begona erkak oldida: “Hay, mayli, tinchlik-omonlik bo‘lsin”, deb yuziga fотиha tortib qo‘yaqolgan Bibi Salima tandir oldiga kelib, qaytadan duo qildi.

— Seni topgan-tutganimiz bolalarimizga rizq bo‘lsin deb qurdik, — dedi tandirga. — Ichingga o‘t yoqamiz, lang‘illatib cho‘g‘ uyamiz. Sening bag‘ring

⁶⁶ И. Султон. Мен, онам ва Ўрта Ер денгизи/ Ҳазрати Хизр изидан.- Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2018.- В 12.

⁶⁷ Исажон Султон. Биби Салима /Генетик.- Тошкент: Янги аср авлоди, 2018.- В. 338.

kuyadi-yu, ammo biz uchun qip-qizarib nonlar pishadi. Iloyo, rizqimizni kengmo‘l qilib bergan bo‘lsin, ko‘p yillar ro‘zg‘orimning xizmatini qilgin”^[68]. U o‘z fitratini yaxshi anglaydi va hech qachon o‘z qadriyatlariga xiyonat qilmaydi. Erkak kishi turganda ayol sifatida o‘z so‘zini aytgisi kelmaydi. Iymoni mustahkam bu ayol qiyinchlik, mashaqqatlarga bardoshli, sabrni o‘zida shakllantira olgan inson. Hikoyada deyarli obrazlar o‘rtasidagi dialoglarni uchratmaymiz. Qahramonning ruhiy dunyosini muallif monologlar orqali ochib beradi. Qalbi mehr-muhabvatga to‘la ayol odamiylik, xalqchillik kabi ezgu fazilatlarga ega. Hazrat Navoiy:

"Odami ersang, demagil odami;
Onikim yo‘q, xalq g‘amidn g‘ami”^[69]

- deya ta’kidlaganidek, to‘rt pahlavondek o‘g‘ilning onasi Bibi Salima ham yolg‘iz o‘z oilasini emas, elini ham o‘ylaydi: "Xudoyo, tavba qildim, — dedi qalbi yorishib. — Nodonligimni qara. Qudratingdan aylanay, el uchun beraqol. Axir, har kimning bir kamchiligi, yetishmovchiligi bor. O‘zing ko‘rib turibsan, hamma mehnat bilan ovora. Kimdir nolisa, kimdir nolimaydi... O‘rgilay qudratingdan, barakangni bir menga emas, butun elga yog‘diraqol!”^[70]. Ushbu monolog uning nihoyatda insonparvar, xokisor, ochiqko‘ngil inson ekanligini ifodalaydi. Ayni paytda, muallif qahramonning ruhiy dunyosini tavsiflar ekan, uni tabiat tasviri bilan hamohang beradi. Tabiatning jonli obrazlari personajlar o‘ykechinmalarini tesvirlashda vosita bo‘lib xizmat qiladi. Zero, munaqqid Rahimjon Rahmat ta’kidlaganidek, “Tabiat hodisalari, manzaralariga Isajon ramziy ma’no yuklaydi. Tabiat tasviri uning asarlarida shunchaki qahramon ruhiyatini aks ettiradigan qo‘shimcha bir vosita emas, balki maqsaddir. U tabiat hodisalari tilida bu olamning inson xayollari yetadigan joyigacha bo‘lgan hikmatini aks ettirishga harakat qiladi. To‘g‘rirog‘i, yozuvchi tabiat hodisalarini shunday ma’noli va ta’sir usulda tasvirlay oladiki, biz bu manzaralarni o‘qib butun borliqni boshqarib

⁶⁸ Исажон Султон. Биби Салима /Генетик.- Тошкент: Янги аср авлоди, 2018.- Б. 337.

⁶⁹ Internet sayti: <https://ziyouz.uz/hikmatlar>

⁷⁰ Исажон Султон. Биби Салима /Генетик.- Тошкент: Янги аср авлоди, 2018.- Б. 342.

turgan Ollohning irodasini rosmana his etamiz”^[71] Ushbu hikoyada ham Isajon Sulton shamol, yomg‘ir obrazlarini keltirib o‘tgan. Isajon Sulton asarlarida bir necha bor tasvirlangan shamol obrazi ushbu hikoyada ham o‘zgacha ruhda berilgan: "Shamol bu makonlarda qibladan esadi. Olisdagi tog‘lar orasida juda katta yoriq joy bor, o‘sha yerdan chiqadi deyishadi”^[72].

Hikoyadagi shamol obrazi qahramonning duosi qabul bo‘lishining ilk belgisidir. Shamol datlab sekin, keyin esa shiddat bilan esib, hamma joyni to‘sto‘sto‘ qilib yubordi. Go‘yoki Bibi Salimaning o‘y- kechinmalariyam shunday alg‘ov-dalg‘ov bo‘lgan. Ammo endi u Allohdan bir mujda kutadi. Muallif yomg‘ir obrazi orqali Bibi Salimaning xavotirlarini aritadi: "-Otam rahmatli, yomg‘irlar jannatdan yog‘adi der edi, rostmikin?"...Yomg‘ir tevarakni yanada gurkiratdi. Daraxt-laru o‘tlar bir kechada o‘sib ketganiga hayron qolardingiz. Tuproq suvlarni shimib oldi, bag‘rida harakatga keltirdi, o‘t-o‘lanu dov-daraxt tanasidan tikkamasiga ko‘tarildi, gullargacha yetib borib, mevalar ichiga sizib kirdi — jannatdan yoqqan zilol shunaqa mo‘jizalar hosil qildi”^[73]. Yomg‘ir uning qalbini ham tiniqlashtiradi, ruhiyatini yengil qiladi. Ha, haqiqatan, adib ushbu hikoyasida peyzajni personaj ruhiyati bilan hamohang tasvirlagan. Hikoyada sodda, samimiy o‘zbek onasining go‘zal portretini yaratgan. Eng qizig‘i, u biror o‘rinda Bibi Salimaning tashqi ko‘rinishini tavsiflamaydi, uning ichki monologi, o‘y-xayollari tasviri orqali mushtipar ona, nurli ayol ekanligi bilinadi.

Isajon Sultonning "Olisdagi urushning aks-sadosi" hikoyasida urushning inson ruhiyatiga ta'siri tasvirlangan. Hikoya qahramon tilidan rivoyat qilinadi. Hikoyada muallif tabiatning go‘zal manzarasini chizadi: "Quyosh botib, juda nozik qorong‘ilik pardasi tevarakni asta-sekin chulg‘adi. Favqulodda durkun maysalar, daraxtlar qiyofasi shom degan ummonga cho‘ma bordi. Tizza bo‘yi

⁷¹ Раҳимжон Раҳмат. "Муножот"дан "Боқий дарбадар"гача. Сўнгсўз ўрнида // Боқий дарбадар. Т.: Ўзбекистон, 2011.-Б. 262

⁷²Исажон Султон. Биби Салима /Генетик.- Тошкент: Янги аср авлоди, 2018.- Б. 343.

⁷³ Исажон Султон. Биби Салима /Генетик.- Тошкент: Янги аср авлоди, 2018.- Б. 345.

o‘tlar, gurkiragan ko‘k gulli tikanlarning shakl-u shamoyili muloyimlashdi”^[74]. Tog‘ning bu ajoyib ko‘rinishi qahramonda keyinchalik yomon xotira qoldiradi.

Hikoyada ko‘l qorovulining tashqi ko‘rinishi juda sovuq tasvirlanadi, muallif buniyam tabiat bilan bog‘laydi: "Ko‘l qorovuli ozg‘in, yuzi cho‘tir-cho‘tir, barmoqlari qiyshiq kishi ekan. Tog‘ xalqini toza, samimiy deb o‘rganib qolganmiz. Bu -kamgap, qoshlari o‘sib ketgan, butun turish-turmushi shu bahor manzarasiga mos kelmaydigan kishi, qo‘lida boltasi, bulturgi qurigan shox-shabbalarni butab yurardi”^[75]. Hikoyada uning ovozi ham o‘zi kabi ruhsiz deya ta’kidlanadi. Negaki, bu inson Afg‘on urushida qatnashgan, urush uning xotirasida yomon chizgilar bilan qolib, hamma narsaga befarq bo‘lib qolgan edi. Hikoyada baqalarning tovushi xunuk eshitilgani uchun qorovul ularni tinchitadi. Bunda u bitta baqani o‘ldirib, uni qolgan baqalar galasiga tashlaydi. Bu o‘rinda baqalar ham ramziy ma’noga ega. Ularning uzluksiz ovoz chiqarishi qahramon ruhiyatida urushning iztiroblarini, yomon xotiralarni tiriltiradi. Ularni ovozini o‘chirish uchun dushmanlarni mahv etishda qo‘llagan usulini ishga soladi. Demak, urush bu iliq tabiat manzarasidan ancha olisda bo‘lsa-da, ammo uning sovuq nafasi insonlar qalbida og‘riqli iz qoldirgan. Urushda ko‘rgan azoblari, xunrezliklar tufayli qahri qattiq bo‘lib qolgan ko‘l qorovulining hayotga bo‘lgan qiziqishi so‘ngan, uning uchun tirik jonzotni o‘ldirish oddiy ishdek. Bundan hecham hayratlanmaydi va afsuslanmaydiyam. Adib hikoya qahramonining ruhiyatini uning yuz-ko‘z ifodalari, ovoz ohangi gap-so‘zlari orqali ifodalagan: “Qorovul bir ko‘lga, bir unga qaradi. Shunda ko‘zi sovuq yilt etdi. O‘sha yilt etishda ham tevarak manzarasiga mos tushmaydigan bir nima sezildi”^[76].

⁷⁴ Султон И. Олисдаги урушнинг акс-садоси/Генетик.--Тошкент: Янги аср авлоди, 2018.- Б. 353.

⁷⁵ Султон И. Олисдаги урушнинг акс-садоси/Генетик.--Тошкент: Янги аср авлоди, 2018.- Б. 353.

⁷⁶ Султон И. Олисдаги урушнинг акс-садоси/Генетик.--Тошкент: Янги аср авлоди, 2018.- Б. 354.

Umuman, olganda, Isajon Sultonning hikoyalar turfa hodisalar tasvirlansada, ularda qahramonlar ruhiyati, qalb olami tasviri alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda u turli yo‘llardan boradi va ko‘pincha qahramonlar nutqi orqali ularning ichki olami portretini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Исажон Султон насри бадиияти: илмий мақолалар, тақриз, адабий суҳбатлар, мактублар. / Тўплаб нашрга тайёрловчилар: Г.Сатторова, М.Қўчқорова. – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2017. – Б. 384.
2. И. Султон. Ҳазрати Хизр изидан.- Тошкент: Фафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2018.- Б 384.
3. Исажон Султон. Биби Салима /Генетик.- Тошкент: Янги аср авлоди, 2018.- Б 384.
4. Раҳимжон Раҳмат. “Муножот”дан “Боқий дарбадар”гача. Сўнгсўз ўрнида // Боқий дарбадар. Т., Ўзбекистон, 2011.Б. 262
5. Internet sayti: <https://ziyouz.uz/hikmatlar>

ABDURAUF FITRAT HAYOTIGA BIR NAZAR

Asliddinova Munisa Aslon qizi

BuxDU Tabiiy fanlar va agro biotexnologiya fakulteti

ANNOTATSIYA: ijodi va ilmiy ijodi haqida. Fitratning o‘zbek milliy uyg‘onish harakatidagi o‘rni, uning adabiy va ilmiy faoliyati, tilshunoslik va pedagogika sohasida qo‘shgan hissasi yoritilgan va yana Fitratning jadidchilik harakatidagi roli, millatning marifatlanishi uchun qilgan bir qator xizmatlari badiiy va ilmiy asarlarida ilgari surgan g‘oyalari haqida batafsil ma’lumot berilgan.

KALIT SO‘ZLAR: Abdurauf Fitrat, jadidchilik, o‘zbek adabiyoti, ma’rifatchilik, Buxoro, dramaturgiya, falsafa, milliy uyg‘onish, tarixiy asarlar, taraqqiyot, islohot, ma’rifiy harakat, ijod, ilm-fan, milliy o‘zlik. Abdurauf Fitratning hayoti va ijodi.

KIRISH. Abdurauf Fitrat – o‘zbek milliy uyg‘onish harakatining yetakchi namoyandalaridan biri bo‘lib, adabiyot, tilshunoslik, dramaturgiya va publitsistika sohalarida ulkan iz qoldirgan. U millatning ma’naviy yuksalishi va taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan ziyoli sifatida tanilgan. Fitrat o‘z asarlarida milliy uyg‘onish, mustaqillik, ilm-ma’rifat va millat ravnaqi g‘oyalarini ilgari

MUNDARIJA			
1.	<i>O.X.Xamidov</i>	<i>Muqaddima</i>	3
1-SHO‘BA ANIQ FANLAR			4
2.	<i>Ergasheva Yulduzoy Olimovna Beknazarov Hasan Soyibnazarovich</i>	<i>Piroliz moyi asosida sulfatkationit sintez qilish usullarini istiqbollari.</i>	4
3.	<i>Jumayeva Guljahon Akmalovna</i>	<i>Uchburchakli panjarada aniqlangan shredinger operatorining spektral xossalari</i>	8
4.	<i>Mamatov Shamsiddin Ulug‘bekova Aziza</i>	<i>Sonli ketma-ketliklar yaqinlashishining yetarli alomatlari</i>	14
2- SHO‘BA TABIY FANLAR			20
5.	<i>Ochilova Dilshoda Otabekovna</i>	<i>Iqlim o‘zgarishi: global isish tabiiy hayotni qanday o‘zgartirmoqda</i>	20
6.	<i>Fayzullayeva Nargiza Izzatullayevna</i>	<i>Global iqlim o‘zgarishi va suv tanqisligi sharoitida suv, energetika va oziq-ovqat xavfsizligi</i>	30
7.	<i>S.V.Shodiyev</i>	<i>Suyuq shisha hamda karbamid formaldegidli smolalar asosida selektiv sorbentlar sintezi</i>	36
3-SHO‘BA TEXNIKA FANLARI			40
8.	<i>Majidov Anvarxon Mahmudxon o‘g‘li</i>	<i>IOT (internet of things) -narsalar interneti</i>	40
9.	<i>Abdusobirova Maxliyo</i>	<i>Bulutli texnologiyalariasosida raqamli ta’lim resurslarini yaratish afzalliklari va dasturiy vositalarining samaradorligi</i>	43
10.	<i>Zikirova Fotima Murtazoyevna</i>	<i>Dasturiy ta’minot muhandisligida yangi texnologiyalar</i>	47
11.	<i>M.K.Abdusobirova M.N.Isroilova</i>	<i>Oliy ta’lim muassasalarida bulutli texnologiyalar asosida raqamli ta’lim resurslarini yaratish elektron muhitining mazmuni va mohiyati</i>	52
4-SHO‘BA QISHLOQ XO‘JALIGI			56
12.	<i>J.Sh.Achilov</i>	<i>G‘alla o‘rim-yig‘im texnikalarni saqlashni tashkil qilish</i>	56
13.	<i>Bo‘riyev Sulaymon Bo‘riyevich Norova Nozima Siroch qizi</i>	<i>Chlorella vulgarisni ajratish, ko‘paytirish usullari va ahamiyati</i>	60
14.	<i>Shodmonov Feruzjon Qamariddinovich Ibrohimov Asadullo Ilhom o‘g‘li</i>	<i>Shampinyon (agaricus bisporus) yetishtirishda kompost tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish</i>	64
15.	<i>Qobilov Aziz</i>	<i>Chlorella turkumi vakillarini intensiv</i>	70

61.	S.U. BAROTOVA M.Hafizova	<i>Xorijiy tilni o‘rganishda o‘z-o‘zini anglash va o‘zini anglashning psixologik omillari</i>	314
62.	Abdullayeva Beg‘ubor Ruxillayevna	<i>Qardosh adabiyotshunoslik fenomeni: berdaq ijodida nazmning o‘rni, she‘rlarida obraz va ramz tahlili metodologiyasi</i>	320
63.	Tursunqulov Ozod Shermat o‘g‘li	<i>Alisher Navoiy ijodida fors-tojik adabiyotining ta‘siri</i>	324
64.	Azimova Kamola Karimovna	<i>Jadidchilik g‘oyalari – yoshlar tarbiyasida muhim omil</i>	330
65.	Nematova Sarvinoz Qamariddinovna	<i>Zulfiya she‘riyatida kun va tun obrazlarining badiiy ifodasi</i>	334
66.	Хайитов Шавкат Аҳмадович Аҳмадова Маҳбуба Шавкат қизи	<i>Бадий наср нафосати</i>	341
67.	Imomova Shahinabonu	<i>Erkin Vohidov she‘riyatida daraxt obrazlari</i>	351
68.	Nizomova Kamola Vohid qizi	<i>Toshpo‘lat Ahmad bag‘ishlovlari</i>	356
69.	Aminova Sevinch Aziz qizi	<i>Abdulla Oripov she‘riyatida tashxis va intoq san‘atlari</i>	362
70.	O‘rmonova Maftuna Farhodjon qizi	<i>Ingliz va o‘zbek tillarida o‘zlashma neologizmlar</i>	368
71.	Khayrullayeva Mohinur Akmal qizi	<i>Comparative analyses of the Uzbek translation of Dan Brown's novel "The Da Vinci Code"</i>	372
72.	Turayeva Maftuna Tolibjon qizi	<i>Alisher Navoiy g‘azallarida “qosh” uzvining badiiy talqinlari</i>	380
73.	Qobilova Dilshoda Yorqinjon qizi,	<i>Dunyo tilshunosligida fitonimlar tadqiqot obyekti sifatida</i>	385
74.	Nurboyeva Sevinch	<i>Abdurauf Fitratning ma‘rifatchilik g‘oyalari va ularning zamonaviy ta‘lim tizimiga ta‘siri</i>	390
75.	Azimova Yulduz Baxtiyor qizi	<i>Memuar janrining lingvistik xususiyatlari</i>	396
76.	Shahnoza Islomova Iskandar qizi	<i>Shifo xususiyatini o‘zida aks ettirgan she‘riy asarlar lingvopoetikasi</i>	402
77.	Xayriyeva Nargiza Ixtiyor qizi	<i>O‘tkir Hoshimovning “shingil hikoyalar”idagi o‘ziga xosliklar va milliylik masalasi</i>	407
78.	Erkinova Asila Akmalovna	<i>The impact of artificial intelligence on the education system!</i>	414
79.	Shodiyeva Nigina Ulug‘bek qizi	<i>Isajon Sulton hikoyalarida obrazlar ruhiyati talqini</i>	417
80.	Asliddinova Munisa Aslon qizi	<i>Abdurauf Fitrat hayotiga bir nazar</i>	427
81.	Nurboyeva Sevinch	<i>Abdurauf Fitratning ma‘rifatchilik g‘oyalari va ularning zamonaviy ta‘lim tizimiga ta‘siri</i>	417
82.	Jalilova Zarina	<i>Xurshid Do‘stmuhammad ijodida milliy</i>	433